

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

HAVO KONDITSIONERI



Ushbu foydalanuvchi qo'llanmani yaxshilab o'qib chiqing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

TURI: DEVORGA O'RNATILADIGAN

Ushbu qurilma elektr va elektronika jihozlarda ma'lum xavfli moddalardan foydalanish bo'yicha cheklolar bilan bog'liq texnik me'yorlar talablariga javob beradi.



Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar yoki tarkib bo'lishi mumkin.
Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI	3
Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari.....	4
ISHLATISH	12
Ishlatish bo'yicha izohlar	12
Qismlar va funksiyalar.....	12
Simsiz boshqaruv pulti	13
Havo konditsionerini avtomatik tarzda ishga tushirish	18
Rejim funksiyasidan foydalanish	18
Turbo rejim funksiyasidan foydalanish	20
Ventilyator tezligi funksiyasidan foydalanish	21
Havo oqimi yo'nalishi funksiyasidan foydalanish	21
Taymerni yoqish/o'chirishga o'rnatish.....	22
Uyqu funksiyasidan foydalanish (opsional)	23
Oddiy taymer funksiyasidan foydalanish (opsional).....	23
Energiyani aks ettirish funksiyasidan foydalanish (opsional).....	24
Chiroqni o'chirish funksiyasidan foydalanish (opsional).....	24
Komfort havo funksiyasidan foydalanish (opsional).....	24
Energiyani boshqarish funksiyasidan foydalanish (opsional).....	25
UVnano funksiyasidan foydalanish (opsional)	25
Havoni tozalashdan qanday foydalaniladi.....	26
Umumiy tozalikni tekshirish.....	26
Maxsus funksiyalardan foydalanish	28
AQLLI FUNKSIYALAR	30
LG ThinQ ilovasi.....	30
Smart Diagnosis (Aqlli tashxislash).....	32
TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	33
Mikro changlar filtrini almashtirish va tozalash.....	35
Uchtalik filtrni almashtirish (opsional).....	36
PM1,0 sensorini tozalang.....	37
NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH.....	38

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan.

Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek “OGOHLANTIRISH” va “DIQQAT” belgilari bilan qismlarga ajratilgan.



Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.



OGOHLANTIRISH

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.



DIQQAT

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Ichki va tashqi bloklarda quyidagi belgilar ko'rsatiladi. (R32 uchun)



Bu belgi jihozda yonuvchan sovitish moddasi borligini bildiradi. Agar sovitish moddasi sizib chiqib, o't olish manbasiga tegsa, yong'in chiqish xavfi bor.



Bu belgi foydalanish qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqish kerakligini bildiradi.



Bu belgi ushbu qurilmani malakali texniklar o'rnatish qo'llanmasiga qarab xizmat ko'rsatishi kerakligini bildiradi.



Bu belgi foydalanish qo'llanmasi yoki o'rnatish qo'llanmasi kabi ma'lumot manbalari borligini bildiradi.

Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari

OGOHLANTIRISH

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

Uydagi bolalar

Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bunday shaxslar jihozdan foydalanishlari mumkin. Bolalarni jihoz yonida nazoratsiz qoldirmang.

O'rnatish

- Havo konditsionerini barqaror bo'lmagan yuzalarga yoki tushib ketishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatmang.
- Konditsionerni o'rnatayotganda yoki joyini almashtirayotganda rasmiy xizmat markaziga murojaat qiling.
- Boshqaruv qutisining paneli va qopqog'ini xavfsiz o'rnatang.
- Konditsionerni benzin, propan, bo'yoq erituvchi va hkz. kabi olovlanuvchi suyuqliklar va gazlar bor joyda o'rnatmang.
- Konditsionerni o'rnatayotganda ichki va tashqi bloklarni ulaydigan quvur hamda elektr kabellari tortilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerining quvvatiga mos keladigan avtomat va elektr saqlagichdan foydalaning.

- Tizim ichiga maxsus xladagentdan tashqari hech qanday havo yoki gaz kiritmang.
- Havo sizib chiqishini tekshirish uchun olovlanmaydigan gazdan (azot) foydalaning, siqilgan havo yoki olovlanuvchi gazdan foydalanish yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Ichki va tashqi blokni ulaydigan simlar mahkam qotirilgan bo'lishi kerak, hamda kabel shunday tortilish kerakki kabelning ulangan jolaridan tortilib uzilib ketmasligi shart. Noto'g'ri ulanish yoki mahkam qotirilmalik qizib ketishi va yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- havo konditsioneridan foydalanish uchun tegishli elektr rozetkasi va avtomatdan foydalaning.
- yerga ulash simini gaz quvuri, momaqalldiroq nayi yoki telefonning yerga ulangan simiga ulamang.
- Zarur ventilyatsiya tirqishlari to'silib qolmasin. (R32 uchun)
- Sim o'tkazish qoidalariga ko'ra, uzish vositalari ham birga o'rnatilishi lozim.
- Jihazni potentsial portlashi mumkin bo'lgan sharoitli muhitda o'rnatmang.

Ishlatish

- Faqatgina xizmat qismida kelgan narsalardan foydalaning. hech qachon qurilmaga o'zgartirish kiritishga harakat qilmang.
- Tashqi blok ustiga yosh bolalar chiqmasligini yoki narsa bilan urmasligini ta'minlang.
- Batareyalarni yong'in sodir bo'lmaydigan joyda chiqitga chiqaring.
- Faqatgina konditsioner yorlig'ida ko'pastilgan xladagentdan foydalaning.
- Agar konditsionerlan shovqin, hid yoki tutun chiqsa darhol elektr tokidan ajrating.
- Benzin, kerosin yoki erituvchilar kabi yonuvchan narsalarni konditsioner yoniga qo'ymang.

- Agar kondisionyerga suv kirib ketsa rasmiy xizmat markaziga murojaat qiling.
- Konditsioneridan tegishli havo almashish bo'lmagan joyda uzoq vaqt foydalamang.
- Agar (freon, propan, suyuq gaz va hkz.) gaz sizib chiqishi yuz bersa havo konditsioneridan foydalanishdan avval xonani yaxshilab shamollating.
- Konditsioner va isitish moslamasi bir vaqtda foydalanilganda xonani yaxshilab shamollatishni unutmang.
- Havo yo'nalishining kirish va chiqish joylarini to'sib qo'ymang.
- Havo yo'nalishining kirish va chiqish joylariga konditsioner ishlayotgan paytda qo'llaringizni yoki boshqa narsalarni tiqmang.
- Elektr kabeli kirlanmagan, bo'shab qolmagan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerini xo'l qo'llaringiz bilan ushlaman, ishlatmang yoki tuzatmang.
- Elektr kabeli ustiga hech narsa qo'ymang.
- Elektr kabeli yoniga isitgich yoki isituvchi moslamalarni joylashtirmang.
- Elektr kabelini o'zgartirmang yoki tortmang. Elektr kabelidagi yirtiq joylar yoki ochilgan joylar yong'inga yoki elektr zarbasiga sabab bo'lishi mumkin va uni almashtirish shart.
- Vaqtinchalik elektr toki bo'lmasa yoki momaqaldiraq paytida darhol elektr simini ajratib qo'ying.
- Jihoz ishlab turgan vaqtda quvvat simi tortilib qolmasligi yoki unga shikast yetmasligini ehtiyotini qiling.
- Jihoz ishlab turgan vaqtda yoki ishlashdan to'xtashi bilanoq sovutish agenti quvuri yoki suv quvuri yoki jihazning ichki qismlariga tega ko'rmang; aks holda, tana kuyishi yoki tana a'zolarini sovuq urishi, tan jarohati yetishi mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Moslamani unga to'g'ridan to'g'ri suv sepish orqali tozalamang.
- Tozalashdan oldin yoki texnik xizmat ko'rsatishdan avval elektr tokidan simni ajrating va ventilyator to'xtagunga qadar kuting.

Texnik xavfsizlik

- Malakasi va ruxsati yo'q shaxs tarafidan moslamani o'rnatish, sizga va boshqalarning hayotiga xavf tug'diradi.
- Sovitish moddasining aylanish konturi bilan ishlaydigan yoki uni ochadigan har qanday shaxsda shu sohada tan olingan muassasa tomonidan berilgan sertifikat bo'lishi lozim. Bu sertifikat ularga sovitish moddasini sohada qabul qilingan xarakteristikalariga muvofiq ravishda ishlatish vakolatini beradi. (R32 uchun)
- Faqat uskunani ishlab chiqaruvchi tavsiya etgan tarzda texnik xizmat ko'rsatish lozim. Profilaktika yoki ta'mirlash ishlariga boshqa malakali shaxs ko'mak beradigan bo'lsa, bu jarayon yonuvchan sovitish moddasi bilan ishlash vakolatiga ega shaxs nazorati ostida bo'lishi lozim. (R32 uchun)
- Ushbu qo'llanmada joy olgan ma'lumot tegishli asbob uskunalariga ega va xavfsizlik qoidalari bilan tanish bo'lgan malakali usta tarafidan foydalanishga mo'ljallangan.
- Ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarni bajarmaslik qurilmaning yaxshi ishlamasligiga, mahsulotning shikastlanishiga yoki shaxsning jarohatlanishiga va/yoki o'limiga sabab bo'lishi mumkin.
- Moslama mahalliy kabellarni ulash qoidalari muvofiq o'rnatilishi shart.
- Elektr kabelini almashtirish kerak bo'lsa, almashtirish ishlari rasmiy usta tarafidan faqat asl ehtiyot qismlaridan foydalangan holda almashtirilishi shart.

- Elektr zarbasining xavfini kamaytirish uchun ushbu moslama tegishli ravishda yerga ulanishi kerak.
- yerga ulash tirqishlarini kesmang yoki olib tashlamang.
- Yerga ulashning adapterini devor qabul qilgichiga ulash moslama metal bo'lmasa, izolyatsiyalanmagan bo'lsa yerga ulangan hisoblanmaydi.
- Agar sizda konditsioner tegishli ravishda yerga ulanganligiga shubhangiz bo'lsa, malakali elektr ustasidan tegishli yerga ulash qutisini va avtomatni tekshirishni so'rang.
- moslamada foydalanilgan xladagent va izolyasiyalangan gaz maxsus chiqitga chiqarish jarayonini talab etadi. ularni chiqitga chiqarishdan avval xizmat agentidan yoki malakali usta bilan maslahatlashing.
- Agar elektr sim shikastlansa, zarar etishining oldini olish uchun ishlab chiqaruvchi yoki uning xizmat ko'rsatuvchi agentlari, shunga o'xshash malakali shaxs tomonidan almashtirilishi lozim.
- Jihoz havo aylanadigan joyda saqlanishi va xona kattaligi ishlatishga qo'yilgan talablarga mos kelishi kerak. (R32 uchun)
- Jihoz uzoq vaqt ochiq turadigan alanga (masalan, ishlayotgan gaz plitasi) va o't olish manbalari (masalan, ishlayotgan elektr isitgich) mavjud bo'lmagan xonada saqlanishi lozim. (R32 uchun)
- Jihoz mexanik shikast yetmaydigan sharoitda saqlanishi lozim. (R32 uchun)
- Jihozdan belgilanmagan maqsadda foydalanish yoki korpusga zarar yetishi xavfli UV-C radiatsiyasining tarqalishiga olib kelishi mumkin. UV-C radiatsiyasi, hatto kichik miqdorlarda ham, ko'z va teriga zarar yetkazishi mumkin.
- Ushbu jihoz UV-C chirog'iga ega.
- Jihozlar shikastlanganda yoki almashtirish zarur bo'lganda, elektr ta'minotini uzing va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

- UV-C chirog'ini jihoz tashqarisida ishlatmang.
- Ish jarayonida havo deflektorini tozalamang va unga teginmang.
- Foydalanuvchilarga texnik xizmat ko'rsatish uchun ultrabinafsha nurlanish xavfi belgisi bo'lgan eshiklarni va kirish panellarini ochishdan oldin, quvvatni o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.
- Qurilmani ochishdan oldin texnik ko'rsatmalarni o'qing.
- Aniq shikastlangan asboblarni ishlatish mumkin emas.
- UV-C Lampa (LED-chiroq) almashtirishdan oldin jihozni elektr ta'minotidan uzib qo'yish kerak.

DIQQAT

Kichik shaxsiy jarohatlarning xavfini kamaytirish, mahsulotning noto'g'ri ishlashi yoki mulkka shikast etishining xavfini kamaytirish uchun asosiy dastlabki ehtiyot choralari ko'rilishi kerak, jumladan, quyidagilar:

O'rnatish

- Havo konditsionerini bevosita dengiz shamoli (tuzli havo) uradigan joylarda o'rnatmang.
- Kondensat suvi to'g'ri chiqib ketishi uchun drenaj quvurini to'g'ri o'rnatish.
- Konditsionerni qadoqdan chiqarayotganda yoki o'rnatayotganda ehtiyotkorlik bilan harakat qiling.
- O'rnatish yoki tuzatish paytida sizib chiqayotgan xladagentga teginmang.
- Konditsionerni ikki kishi yoki undan ko'rroq bo'lib tashish.
- Tashqi blokni quyosh nurlaridan saqlangan joyda o'rnatish. Ichki blokni quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri tegib turadigan joylarda o'rnatmang.

- O'rnatish yoki tuzatish ishlarini amalga oshirgandan so'ng burama mixlar, mixlar, plastik qoplar yoki batareyalar kabi qadoqlash materiallarni tegishli idishga solib xavfsiz ravishda chiqindiga tashlang.
- Konditsionerini shunday joyga o'rningi, undan chiqqan shovqin va havo qo'shnilar noqulayliklar keltirmasin. Bunday qilmaslik qo'shnilar bilan kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ishlatish

- Agar masofali pult uzoq muddat davomida foydalanilmaydigan bo'lsa, undagi batareyalarni chiqarib tashlang.
- Havo konditsionerini ishlatishdan avval filtr o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
- Konditsionerni o'rnatgandan yoki ta'mirlagandan so'ng xladagent (sovitish moddasi) sizib chiqmayotganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerining ustiga hech narsa qo'ymang.
- Pultda hech qachon turli batareyalarni, yoki eski bilan yangi batareyani aralashtirgan holda qo'llamang.
- Namlik yuqori bo'lgan paytda yoki eshik yo deraza ochiq paytda havo konditsionerini uzoq vaqt davomida ishlatmang.
- Batareyada suyuqlik chiqsa, pultdan foydalanishni to'xtating. agar kiyimlaringiz yoki teringizga batareyaning oqib chiqqan suvi tegsa, uni suv bilan yuvib tashlang.
- Odamlarni, hayvonlarni yoki o'simliklarni konditsionerdan chiqayotgan issiq yoki sovuq havosi ostida uzoq vaqt qoldirmang.
- Agar batareyadan oqib chiqqan suyuqlik yutib yuborilsa, og'zingizni suv bilan chayib yuboring va shifokorga murojaat qiling.
- Havo konditsioneridan chiqqan suvni ichmang.
- Mahsulotdan oziq-ovqatlarni, san'at asarlarini va boshqa narsalarni saqlash maqsadida foydalanmang. U iste'mol havo konditsioneridir, aniq ishlaydigan sotish tizimi emas. Mulkning shikastlanish yoki yo'q bo'lish xavfi bor.

- Batareyalarni qaytadan zaryad qilmang yoki qismlarga ajratmang.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Mikro changlar filtrini chiqarayotganda hech qachon temir qismlarga teginmang.
- Konditsionerni balandlikda tozalayotganda yoki xizmat ko'rsatayotganda barqaror o'rindiq yoki narvondan foydalaning.
- Konditsionerndan foydalanayotganda hech qachon kuchli tozalash vositalari yoki eritgichlaridan foydalanmang. Yumshoq matodan foydalaning.
- Konditsionerning ichki qismlarini tozalash uchun rasmiy xizmat markazi yoki dilyerga murojaat qiling. dag'al yuvish vositalardan foydalanish qurilmani chiritishga yoki shiksatlashga olib kelishi mumkin.

Ishlatilgan batareya/akkumulyatorlarni chiqitga chiqarish



- Agar batareya tarkibida 0,0005 % simob, 0,002 % kadmiy yoki 0,004 % qo'rg'oshin bor bo'lsa, simob (Hg), kadmiy (Cd) yoki qo'rg'oshin (Pb) kimyoviy belgilari bilan birga ushbu belgi yozilishi mumkin.
- Barcha batareya/akkumulyatorlar maishiy chiqindidan alohida yo'sinda, mahalliy hokimiyat tayinlagan maxsus yig'ish nuqtalari orqali chiqitga chiqarilishi lozim.
- Eski batareya/akkumulyatorlarni tegishli tarzda chiqitga chiqarish orqali atrof-muhitga, hayvonot va insonlar sog'lig'iga salbiy ta'sirining oldini olasiz.
- Eski batareya/akkumulyatorlarni chiqitga chiqarish to'g'risida batafsil ma'lumot uchun shahringizdagi idoraga, chiqindi xizmatiga yoki mahsulot sotib olingan do'konga murojaat qiling.


Ishlatish bo'yicha izohlar

Energiyani tejash bo'yicha maslahatlar

- Xonani juda qattiq sovitib yubormang. bu sog'lig'ingizga zarali va elektr energiyasining zoe bo'lishiga olib kelishi mumkin.
- Konditsionerni ishlatayotgan paytda derazalarni pardalar bilan yoping.
- Konditsioner ishlayotgan paytda eshik va derazalar mahkam yoriqligini ta'minlang.
- Xona havosi aylanishi uchun havo oqimini vertikal va gorizontal yo'nalishini sozlang.
- Issiq xonani tez va qisqa vaqt ichida sovitish uchun ventilyatorni kuchli tezlikda ishlating.
- Agar konditsioner uzoq vaqt davomida ishlasa derazalarni tez-tez ochib shamollating, chunki xonaning havosi buzilishi mumkin.
- Mikro changlar filtrini oyiga bir marta yoki zaruratga ko'ra ko'proq tozalang. Mikro changlar filtrida yig'ilib qolgan chang va kirlar havo chiqishini to'sib qo'yishi yoki qurilma ishlash samaradorligini pasaytirib qo'yishi mumkin.


Qismlar va funksiyalar

Ichki blok



- ❶ Havo filtri + Mikro changlar filtri
- ❷ Ionizator
- ❸ Havo tortish
- ❹ Old paneli
- ❺ PM1,0 sensori
- ❻ Yoqish/o'chirish tugmasi
- ❼ Havo deflektori (vertikal jalyuzi)
- ❽ Havo deflektori (gorizontal flyuger)
- ❾ Havo chiqish

Tashqi blok



- ❶ Havo so'rish joyi
- ❷ Havo chiqish joyi

Izoh


- Ishlash chiroqlarining soni va joylari konditsionerning modeliga qarab farqli bo'lishi mumkin.
- Model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.

Simsiz boshqaruv pulti


Batareyalarni joylashtirish

Agar pultning ekrani xiralashishni boshlasa, batareyalarni almashtiring. Pultdan foydalanishdan avval AAA (1,5 v) batareyalarini joylashtiring.

- 1 Batareya qopqog'ini chiqaring.




- 2 Yangi batareyalarni joylashtiring va + hamda – qutblari to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.



Pult ushlagichini o'rnatish


Pultni himoya qilish uchun pult ushlagichini quyosh nuri tegmaydigan joyga o'rnatang.

- 1 Xavfsiz va qo'l qulay yetadigan joyni tanlang.
- 2 Pult ushlagichining 2 vintini otvertka bilan yaxshilab qotiring.



Ishlatish usuli

Konditsionerni ishlatish uchun masofadan boshqarish pultini o'ng tomondagi signal qabul qiladigan nuqtaga qaratib ishlatang.



Izoh

- Pult boshqa elektron qurilmalarini ham, agar ularga qaratilsa ishlatishi mumkin. Pultni signal qabul qiladigan nuqtasiga qaratishni unutmang.
- Tegishli ravishda ishlatish uchun, signal uzatgichini yumshoq mato bilan tozalab turing.
- Agar mahsulotda funksiya taqdim qilinmagan bo'lsa, pultdagi shu funksiya tugmasi bosilganda mahsulotdan hech qanday signal chiqmaydi, Havo oqimi yo'nalishi (Swing), Energiya displeyi (KWF/S), Havoni tozalash funksiyasi (bundan mustasno).

Joriy vaqtni o'rnatish

- 1 Batareyalarni joylashtiring.
 - Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



- 2 Daqiqalarni tanlash uchun yoki tugmasini bosing.

- 3 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.

Izoh

- Taymerni yoqish/o'chirish funksiyasi joriy vaqtni o'rnatgandan so'ng ishlaydi.


Havo konditsionerini pultsiz ishlatish

Pult bo'lmagan paytda siz ichki blokni ishlatish uchun **ON/OFF** tugmasidan foydalanishingiz mumkin.


- 1 Old qoplamani (2-turdagi) yoki gorizontaal qanotni (1-turdagi) oching.

- 2 **ON/OFF** tugmasini bosing.

Tur-1



Tur-2




Izoh

- Agar gorizontaal jalyuzi tez harakatlantirilsa, qadam dvigateli buzilishi mumkin.
- Ventilyator tezligi yuqoriga o'rnatilgan.
- Model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.
- Favqulodda **ON/OFF** tugmasidan foydalanilganda haroratni o'zgartirib bo'lmaydi.
- Faqat sovitish modellarida harorat 22 °C darajaga o'rnatilgan bo'ladi.
- Sovitish va isitish modellarida harorat 22 °C dan 24 °C darajaga o'rnatilgan bo'ladi.

Simsiz boshqaruv pultidan foydalanish


Konditsioneridan masofali pultdan foydalangan holda qulay ishlatishingiz mumkin.




1 Tugmasi	2 Ekranda aks etishi	Tavsifi	Mavjud funksiya	
			Bittalik split	Multi
	-	Konditsionerni yoqish/o'chirish.	☐	☐
 Temp. 	88 °C	Sovitish, isitish yoki avto almashish rejimida kerakli xona haroratini sozlash uchun.	☐	☐
Mode		Sovitish rejimini tanlash uchun.	☐	☐
		Isitish rejimini tanlash uchun.	☐	☐
		quriti rejimini tanlash uchun.	☐	☐
		Ventilyator rejimini tanlash uchun.	☐	☐
		Avto almashtirish/avto ishlash rejimini tanlash uchun.	☐	☐
Jet Mode	PO	Xona haroratini tez o'zgartirish uchun.	☐	☐
Fan Speed		Ventilyator tezligini sozlash uchun.	☐	☐
		Havo oqimini vertikal yoki gorizontal yo'nalishda sozlash uchun.	☐	☐

Izoh

- * tugmalar model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.
- Tashqi multi blokka ulanganda Quvvat displeyi, Quvvat nazorati, Sokin va Aqlli diagnostika funksiyalari ishlamasligi mumkin.



1 Tugmasi	2 Ekranda aks etishi	Tavsifi	Mavjud funksiya	
			Bittalik split	Multi
		Kerakli vaqtda konditsionerini yoqish/o'chirish uchun.	O	O
Set/Cancel	-	Maxsus funksiyalar va taymerni o'rnatish/bekor qilish uchun.	O	O
	-	Taymer sozlamalarini bekor qilish uchun.	O	O
	-	Vaqtni sozlash uchun.	O	O
Light(3 s)	-	Ichki blok ekranining ravshanligini o'rnatish uchun.	O	O
Room Temp.(3 s)		Xona haroratini aks ettirish uchun.	O	O
*Comfort Air		Shamol yo'halishini sozlash uchun.	O	O
kW(3 s)	-	Energiya haqidagi ma'lumotni aks ettirish yoki ettirmaslikni sozlash uchun.	O	X
*Energy Ctrl.		Energiya iste'moli tejashni ishga tushirish uchun.	O	X
Diagnosis (5 s)	-	Mahsulotga texnik xizmat ko'rsatishni qulay tekshirish uchun.	O	X
PM Sensor	-	Xona ichidagi changlar holatini tekshirish uchun.	O	O
*Air Purify	-	Ion generatori xona ichidagi havo sifatini yaxshilash uchun millionlab ionlardan foydalanadi.	O	O
UVnano (3 s)	-	Ventilyatsiyon tizimni toza saqlash uchun.	O (opsional)	O (opsional)



1 Tugmasi	2 Ekranda aks etishi	Tavsifi	Mavjud funktsiya	
			Bittalik split	Multi
		Tashqi blokdan chiqadigan shovqinni kamaytirish uchun.	O	X
		ichki blokda hosil bo'lgan namlikni olib tashlash uchun.	O	O
Reset	-	Pult sozlamalarini ishg'a tushirish uchun.	O	O

Izoh

- Ayrim xususiyatlar modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- * tugmalar model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.
- Tanlangan **Func** ishlatish uchun **Set/Cancel** tugmasini bosib.


Havo konditsionerini avtomatik tarzda ishga tushirish

Elektr toki uzilgandan so'ng havo konditsioneri qaytadan ishga tushgandan so'ng ushbu funksiyalar avvalgi sozlamalarni tiklaydi.


Avtomatik qayta ishga tushirishni o'chirib qo'yish

- 1 Old qoplamani (2-turdagi) yoki gorizontal qanotni (1-turdagi) oching.
- 2 **ON/OFF** tugmasini bosib va 6 soniya davomida ushlab turing, so'ngra blok ikki marta signal chaladi va chiroq 4 marta ikki martadan miltillaydi.
 - funksiyani qaytadan ishga tushirish uchun **ON/OFF** tugmasini bosib va 6 soniya davomida ushlab turing. Qurilma ikki marta signal chaladi va chiroq 4 marta miltillaydi.

Tur-1



Tur-2




Izoh

- Model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.
- Agar siz **ON/OFF** tugmasini 6 soniya o'rniga 3 – 5 soniya davomida bosib tursangiz, qurilma sinov ishlash rejimiga o'tadi. Sinov ishlash paytida qurilma 18 daqiqa davomida kuchli havo beradi va zavodning sukut bo'yicha sozlamalariga qaytadi.

Rejim funksiyasidan foydalanish

Ushbu funksiya kerakli funksiyalarni tanlash imkonini beradi.



Sovitish rejimi

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Sovitish rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosib.
 - Ekranda ❄️ aks etadi.
- 3 Kerakli haroratni tanlash uchun ⬆️ yoki ⬇️ tugmasini bosib.

Avto ishlatish (Sun'iy aql)

Multi modeli

Bu ishlash rejimida tizim avtomatik ravishda elektron tarzda boshqariladi.

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Avto ishlash rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosib.
 - Ekranda  aks etadi.
- 3 Kerakli haroratni tanlash uchun  yoki  tugmasini bosib.
- 4 Ventilyator tezligini sozlash uchun **Fan Speed** tugmasini bosib.

Avto o'zgartirish rejimi

Bittalik split modeli

Ushbu rejim o'rnatilgan ± 2 °C haroratda rejimni avtomatik tarzda o'zgartiradi.

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Avto o'zgartirish rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosib.
 - Ekranda  aks etadi.
- 3 Kerakli haroratni tanlash uchun  yoki  tugmasini bosib.
- 4 Ventilyator tezligini sozlash uchun **Fan Speed** tugmasini bosib.

Quritish rejimi

Ushbu rejim yuqori namlik muhitda yoki yomg'ir mavsumida mog'orlanishning oldini olish uchun o'ta ko'r namlikni yo'qotadi. ushbu rejim namlikning optimal darajasini ushlab turish uchug xona haroratini va ventilyator tezligini avtomatik tarzda sozlaydi.

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Quritish rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosib.
 - Ekranda  aks etadi.

Izoh

- Ushbu rejimda xona haroratini sozlay olmaysiz, u avtomatik tarzda sozlanadi.
- Xona harorati ekranda aks ettirilmaydi.
- Namsizlantirish rejimida xona harorati 24 °C dan past bo'lganda kompressor va ichki blok ventilyatori ishlamay qolishi mumkin.

Isitish rejimi

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Isitish rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosong.
 - Ekranda  aks etadi.
- 3 Kerakli haroratni tanlash uchun  yoki  tugmasini bosong.

Izoh

- Muzdan tushirish ishlayotganda ichki blokda  belgisi paydo bo'ladi.
- Shuningdek, bu indikatsiya ichki blokda ham paydo bo'ladi:
 - Dastlabki isitish ishlayotganda.
 - Xona harorati belgilangan haroratga yetganida.

Ventilyator rejimi

Ushbu rejimda xona havosi aylanadi, harorat o'zgarmaydi.

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Ventilyator rejimini tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosong.
 - Ekranda  aks etadi.
- 3 Ventilyator tezligini sozlash uchun **Fan Speed** tugmasini bosong.

Izoh

- Ventilyator rejimi ishlaganda ichki blokda  yoki  ko'rsatiladi.

Turbo rejim funksiyasidan foydalanish

Xona haroratini tez o'zgartirish

Ushbu funksiya yozda xonani tez sovitish yoki qishda tez isitish imkonini beradi.

- turbo rejimi funksiyasi sovitish, isitish va quritish rejimlarida mavjud.

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Kerakli rejimni tanlash uchun **Mode** tugmasini qayta-qayta bosong.
- 3 **Jet Mode** tugmasini bosong.
 - Ekranda  aks etadi.

Izoh

- Turbo isitish rejimi ayrim modellarda mavjud emas.
- Turbo sovitish rejimida 30 daqiqa davomida qattiq shamol esib turadi.
- 30 daqiqadan so'ng, sozlangan harorat 18 °C qiymatda ta'minlanadi.
Agar haroratni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz,  yoki  tugma yordamida kerakli haroratni sozlang.
- Turbo isitish rejimida 30 daqiqa davomida qattiq shamol esib turadi.
- 30 daqiqadan so'ng, sozlangan harorat 30 °C qiymatda ta'minlanadi.
Agar haroratni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz,  yoki  tugma yordamida kerakli haroratni sozlang.
- Ushbu funksiya pult ekranidagi ko'rsatmadan farqliqoq ishlashi mumkin.

Ventilyator tezligi funksiyasidan foydalanish

Ventilyator tezligini sozlash

- Ventilyator tezligini sozlash uchun **Fan Speed** tugmasini qayta qayta bosing.

Ekranda aks etishi	Tezlik
	Yuqori
	O'rta – Yuqori
	O'rta
	O'rta – Past
	Past
-	Tabiiy shamol

Izoh

- Tabiiy shabadaning aylanish tezligi avtomatik sozlanadi.



- Ventilyator tezligi tasvirchalari ayrim ichki blok displeylarida aks etishi mumkin.

F1 → F2 → F3 → F4 → F5

- Ayrim modellarda ichki blok 5 soniya davomida aks etib keyin belgilangan haroratni ko'rsatishi mumkin.

Havo oqimi yo'nalishi funksiyasidan foydalanish

Ushbu funksiya havo oqimini vertikal (gorizontal) yo'nalishda sozlaydi.

-   tugmasini qayta qayta bosing va kerakli yo'nalishni tanlang.
 - Havo yo'nalishini avtomatik tarzda sozlash uchun  tugmasini bosing.

Izoh

- Havo oqimi yo'nalishini gorizontal sozlanishi modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- Havo deflektorini majburan sozlash mahsulotning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Agar siz havo konditsionerini qayta ishga tushirsangiz, u avvalgi sozlangan yo'nalishda ishlashy boshlaydi va deflektor pultda aks etgan yo'nalishga mos bo'lmasligi mumkin. Shunday holat yuz bersa havo oqimi yo'nalishini qaytadan sozlash uchun  yoki  tugmasini bosing.
- Ushbu funksiya pult ekranidagi ko'rsatmadan farqliroq ishlashi mumkin.

Taymerni yoqish/o'chirishga o'rnatish

Ushbu funksiya kerak bo'lgan vaqtda avtomatik tarzda yoqadi/o'chiradi.

Ishga tushirish/o'chirish taymerini birgalikda o'rnatga bo'ladi.

Taymerni yoqishga o'rnatish

- 1  tugmasini qayta qayta bosing.
 - Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



- 2 Daqiqalarni tanlash uchun  yoki  tugmasini bosing.

- 3 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.
 - Taymer o'rnatilgandan so'ng va  tasvirchasi aks etgandan so'ng, ekranda tegishli vaqt o'rnatilganligi ko'rsatiladi.

Taymerni yoqishni bekor qilish

- 1  Tugmasini qayta qayta bosing.
 - Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



- 2 Sozlamani bekor qilish uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.

Taymerni o'chirishga o'rnatish

- 1  Tugmasini qayta qayta bosing.
 - Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



- 2 Daqiqalarni tanlash uchun  yoki  tugmasini bosing.

- 3 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.
 - Taymer o'rnatilgandan so'ng va  tasvirchasi aks etgandan so'ng, ekranda tegishli vaqt o'rnatilganligi ko'rsatiladi.

Izoh

- Ushbu funksiya oddiy vaqtni o'rnatganingizda o'chiriladi.

O'chirish taymerini bekor qilish

- 1  tugmasini qayta qayta bosing.
 - Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



- 2 Sozlamani bekor qilish uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.

O'chirish taymeri sozlamasini bekor qilish

- Barcha taymer sozlamalarini bekor qilish uchun  tugmasini bosing.

Uyqu funksiyasidan foydalanish (opsional)

Ushbu funksiya uyquga ketganingizda konditsionerni avtomatik tarzda o'chiradi.

1 Moslamani yoqing.

2  tugmasini qayta qayta bosing.
• Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



3 Soatni tanlash uchun (7 soatgacha)  yoki  tugmasini bosing.

4 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.

- Ekranida  aks etadi.

Izoh


- Ayrim ichki bloklarda  aks etadi.
- Ichki blok ekrani 5 soniya davomida 1 dan 7 soatgacha vaqtni aks etadi, so'ngra belgilangan harorat sozlamasiga qaytadi.
- Sovitish va quritish rejimlarida harorat 1 °C darajaga 30 soniyadan so'ng oshadi va qo'shimcha 1 °C darajadan har 30 daqiqadan so'ng maroqli uyqu uchun oshadi.
- Harorat o'rnatilgan haroratdan 2 °C darajaga oshadi.
- Ekrandagi ventilyator tezligi belgisi o'zgarsa ham, ventilyator tezligi avtomatik tarzda o'zgaradi.

Oddiy taymer funksiyasidan foydalanish (opsional)

Ushbu funksiya uyquga ketganingizda konditsionerni avtomatik tarzda o'chiradi.

1 Moslamani yoqing.

2  tugmasini qayta qayta bosing.
• Ekran pastidagi tasvircha miltillaydi.



3 Soatni tanlash uchun (7 soatgacha)  yoki  tugmasini bosing.

4 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosing.

- Ekranida  aks etadi.

Izoh

- Ushbu funksiya o'chirish taymerini o'rnatganingizda o'chiriladi.

Energiyani aks ettirish funksiyasidan foydalanish (opsional)

Ushbu funksiya mahsulot ishlagan paytda ichki blok displeyida hosil bo'lgan elektr quvvatini aks ettiradi.

Joriy elektr energiyasidan foydalanish

1 Moslamani yoqing.

2  Tugmasini bosib va 3 soniya davomida ushlab turing.

- Ayrim ichki bloklarda bir ozga lahzali  quvvat iste'moli aks etadi.

Izoh

- Ko'rsatilgan qiymat birligi - kVt.
- U masofali pultda aks ettirilmaydi.
- Agar u ifodaning diapazoni bo'lgan 99 kVt dan ortiq bo'lsa, uni 99 kVt sifatida ushlab turing.
- 10 kVt dan past quvvatlarni 0,1 kVt birlikda va 10 kVt dan kamida birga ko'p bo'lgan quvvatlarni 1 kVt birlikda ko'rsating.
- Haqiqiy elektr iste'moli miqdori aks ettirilayotgan iste'moldan farqli bo'lishi mumkin.
- Tashqi multi blokka ulanganda bu funksiya ishlamasligi mumkin.

Chiroqni o'chirish funksiyasidan foydalanish (opsional)

Aks etish ekranining ravshanligi

Siz ichki blok ekranining ravshanligini sozlashingiz mumkin.

-  Tugmasini bosib va 3 soniya davomida ushlab turing.

Izoh

- Displey ekranini yoqing/o'chiring.

Komfort havo funksiyasidan foydalanish (opsional)

Komfort jalyuzi ishlashi

Ushbu funksiya jalyuzini xonadagi odamlarga bevosita havo urmasligi uchun jalyuzini qulay tarzda yo'nalishini o'rnatadi.

1 Moslamani yoqing.

2 Kerakli yo'nalishni tanlash uchun **Comfort Air** tugmasini qayta-qayta bosib va kerakli yo'nalishni tanlang.

- Ekranida  yoki  aks etadi.

Izoh

- Ayrim ichki bloklarda  yoki  aks etadi.
- Ushbu funksiya **Mode** yoki **Jet Mode** tugmasini bossangiz, o'chadi.
- Ushbu funksiya  tugmasini bosib vertikal havo yo'nalishining avto chayqalish tanlansa, o'chadi.
- Ushbu funksiya o'chirilganda gorizontall jalyuzi o'rnatilgan rejimga muvofiq avtomatik tarzda ishlaydi.

Energiyani boshqarish funksiyasidan foydalanish (opsional)

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 **Energy Ctrl** tugmasini bosib.
 - Har bir qadamni tanlash uchun **Energy Ctrl** tugmasini qayta qayta bosib.

Izoh

- 1-qadam: Quvvat iste'moli nominal quvvat iste'moliga nisbatan 20 % kamayadi.
 - Ekranda P_1  % aks etadi.
- 2-qadam: Quvvat iste'moli nominal quvvat iste'moliga nisbatan 40 % kamayadi.
 - Ekranda P_1  % aks etadi.
- 3-qadam (opsional): Quvvat iste'moli nominal quvvat iste'moliga nisbatan 60 % kamayadi.
 - Ekranda P_1  % aks etadi.
- Ayrim ichki bloklarda  (1 qadam),  (2 qadam) aks etadi.
- Ushbu funksiya sovitish rejimida mavjud.
- Energiyani boshqarish rejimi tanlanganda quvvati qisqarishi mumkin.
- Agar siz **Fan Speed**,  yoki  tugmasini bossangiz, kerakli harorat 5 soniya davomida aks etadi.
- Agar  tugmachasini 3 soniya bosib tursangiz, xona harorati taxminan 5 sekund ko'rsatiladi.
- Tashqi multi blokka ulanganda bu funksiya ishlamasligi mumkin.

UVnano funksiyasidan foydalanish (opsional)

UVnano UV (ultrabinafsha nurlar) va nanometr (uzunlik birligi) so'zlarining birikmasi hisoblanadi.

Ushbu funksiya konditsioner ichidagi turli bakteriyalarni kamaytiradi.

Model nomi: LTPL-G35UV275GS-JA

LTPL-G35U275GS-TWA

CUD7GF1A

Jet Mode tugmasini bosib va 3 soniya davomida ushlab turing.

Izoh

- **UV** modelga bog'liq ravishda ba'zi ichki qismlarda ko'rsatiladi.
- Ventilyatorni toza saqlash uchun ultrabinafsha nurli LED muntazam ravishda ishlaydi.
- Konditsioner o'chirilganda, UVnano funksiyasi to'xtaydi.
- Avtomatik tozalash funksiyasi ishga tushganda, UVnano funksiyasi ventilyatorni toza saqlash uchun birgalikda ishlaydi.
- Ushbu funksiya Isitish rejimida ishlamaydi.

Havoni tozalashdan qanday foydalaniladi

Ionlashtirgich va havo tozalash filtri xona ichidagi havoni yoqimli qiladi.

- Havoni tozalash operatsiyasini ishga tushirish uchun **Air Purify** tugmasini bosing.
 - Ekranda  aks etadi.

Ishlatish rejimlari davomida Havoni tozalashdan foydalanish

- Sovutish, namsizlantirish, isitish yoki avtomatik o'zgartirish operatsiyasi ishlayotgan vaqtda **Air Purify** tugmasini bossangiz, bu operatsiya bilan bir vaqtda havoni tozalashdan foydalanishingiz mumkin.
- Havoni tozalash operatsiyasi ishlayotgan vaqtda **Mode** tugmasini bossangiz, bu operatsiya bilan bir vaqtda sovutish, namsizlantirish, isitish yoki avtomatik o'zgartirish operatsiyasidan foydalanishingiz mumkin.

Smart havoni tozalash

- Changlar sensori xona ichidagi havoning ifloslanganlik darajasini aniqlaydi va agar umumiy tozalik Sabzi rang (Yomon) darajasida bo'lsa, u avtomatik tarzda havoni tozalash operatsiyasini ishga tushiradi. Umumiy tozalik Yashil (Yahshi) darajaga yetganida havoni tozalash operatsiyasi ishlashdan to'xtaydi. Agar siz smart havoni tozalash operatsiyasining ishlashini xohlamasangiz, **Air Purify** tugmasini bosish orqali tozalang. Mahsulotni o'chirib yoqmagingizcha havoni tozalash operatsiyasi avtomatik tarzda ishga tushirilmaydi.
- U faqat umumiy tozalik funksiyasi qo'llanilgan modelda ishlaydi.

⚠️ DIQQAT

- Havoni tozalash operatsiyasi ishlayotgan vaqtda mahsulotning tepa tomoniga tegmang. (Chang to'plash ionlashtirgichidan chiquvchi anion tomonidan statik elektr toki hosil bo'lishi mumkin.)
- Jihoz yaqiniga metallardan qilingan buyumlar qo'ymang. (Chang to'plash ionlashtirgichidan chiquvchi anion tomonidan statik elektr toki hosil bo'lishi mumkin.)


Izoh

- Havoni tozalash yakka operatsiyasi quyi energiya sarfi bilan boruvchi operatsiyadir.
- Havoni tozalash yakka operatsiyasi ishlayotgan vaqtda shamol yo'nalishi funksiyasidan foydalanilishi mumkin, biroq haroratni nazorat qilish funksiyasidan foydalanib bo'lmaydi.
- Sovutish yoki namsizlantirish operatsiyasi davomida agar yakka havoni tozalash operatsiyasini ishlatishishni xohlasangiz, mahsulotni o'chirish uchun  **power** tugmasini bosing va **Air Purify** tugmasini bosing.
- Ionlashtirgich va filtr komponentlari turli modellar uchun turlicha bo'lishi mumkin.

Umumiy tozalikni tekshirish

U xona ichidagi tozalikni ko'rsatadi.

- Moslamani yoqing.
- Ishlayotgan vaqtda **PM Sensor** tugmasini bossangiz, har bir darajadagi xona ichidagi tozalikni tekshirishingiz mumkin.



- Umumiy tozalik rangini ko'rsatish
- Chang o'lchami chang konsentratsiyasini ko'rsatish

- Chang konsentratsiyasi 1 birlikda 8~999 $\mu\text{g}/\text{m}^3$ orasida ko'rsatiladi. Chang konsentratsiyasi sensor ishlab chiqaruvchisining ma'lumotlar varag'iga havola qiladi.
- Xona ichidagi muhitning o'zgarishiga ko'ra chang konsentratsiyasi uzluksiz tarzda o'zgarib turishi mumkin.
- Umumiy tozalik rangi mayda changlar (PM10), ultra mayda changlar (PM2,5) va super mayda changlar (PM1,0) orasidagi eng yuqori ifloslanish darajasiga asoslangan holda ko'rsatiladi.
- Umumiy tozalik rangi xona ichidagi ifloslanish darajasiga ko'ra 4 ta darajada ko'rsatiladi.
- Agar chang konsentratsiyasi baland bo'lsa, ko'rsatilgan chang konsentratsiyasi bilan haqiqiy chang konsentratsiyasi o'rtasidagi farq kattaroq bo'lishi mumkin.

Rang	Daraja	Ko'rsatish standarti ($\mu\text{g}/\text{m}^3$)		
		Super ultra mayda chang (PM1,0)	Ultra mayda chang (PM2,5)	Mayda chang (PM10)
Yashil	Yashil (Yahshi)	12 yoki kamroq	12 yoki kamroq	54 yoki kamroq
Sariq	Sariq (Me'yorida)	13 - 35	13 - 35	55 - 154
Sabzi rang	Sabzi rang (Yomon)	36 - 55	36 - 55	155 - 254
Qizil	Qizil (Juda yomon)	56 yoki ko'proq	56 yoki ko'proq	255 yoki ko'proq

Izoh

- Atrofdagi muhitga (Qurilish yaqinida. yo'l yaqinida, zavod va hok.) ko'ra mayda/ultra mayda/super ultra mayda chang konsentratsiyasi boshqacha bo'lishi mumkin.
- O'rnatish muhitiga ko'ra chang to'planganligi darajasi farq qilishi mumkin. Unga vagonlar, to'shaklar, gilamlar, tozalagichlar, namlik, tutun, hashorotlar, uy hayvonlari kabilar ta'sir qiladi.
- Eshik, deraza yaqini yoki ventilyatsiya tirqishi kabi tashqi havo oqimiga ega bo'lgan muhitda chang konsentratsiyasi yuqori sifatida o'lchanishi mumkin.
- Hattoki bitta joyning o'zida ham havo aylanishi tufayli chang konsentratsiyasi boshqa mahsulotlardan boshqacha ko'rsatilishi mumkin.
- Tozalik displeyi mayda changlarni batafsil ko'rsatadi, shuning uchun ham u mayda chang, ultra mayda chang yoki super ultra mayda chang to'planganlik darajasi qiymatidan farq qilishi mumkin.
- Mahsulotda ko'rsatilgan mayda chang/ultra mayda chang konsentratsiyasi Ekologiya vazirligi tomonidan e'lon qilinganidan farq qilishi mumkin va u boshqa o'lchov qurilmalari yoki boshqa mahsulotlarning o'lchash standartlaridan boshqacha bo'lishi mumkin.
- Ko'rsatilgan mayda chang, ultra mayda chang va super ultra mayda chang konsentratsiyasi qiymati Ekologiya vazirligi bashorat qilganidan boshqacha bo'lishi mumkin.
- Agar bug' yoki mayda zarrachalar hosil qiluvchi mahsulotlardan (namlantirgichlar, pishirish apparatlari, sepgichlar va hok.) foydalanilsa, chang konsentratsiyasi o'zgarishi mumkin.
- Tozalikni faqat havo konditsioneri ishlayotgan holatda tekshirishingiz mumkin.

- Ko'rsatilgan chang konsentratsiya qiymati haqiqiy chang konsentratsiyasidan farq qilishi va qurilma haqiqiy chang konsentratsiyasi darajasidan boshqa tozalik rangini ko'rsatishi mumkin.
- Chang zarrachalarining o'lchami bo'yicha yo'riqnoma
 - Mayda chang: Zarrachalari 10 µm yoki undan kichik bo'lgan changlar (Ish joyidagi yonish, avtomobillardan chiquvchi tutunlar kabilar tomonidan hosil qilinadi.)
 - Ultra mayda chang: Zarrachalari 2,5 µm undan kichik bo'lgan changlar (ion komponent, uglerodli komponent va metall komponentdan tashkil topgan)
 - Super ultra mayda chang: Zarrachalari 1,0 µm undan kichik bo'lgan changlar (Sigareta tutuni va hok.)
- Mahsulotda ko'rsatilgan chang konsentratsiyasi va umumiy tozalik darajasi Ekologiya vazirligi tomon e'lon qilingan qiymatlardan farq qilishi mumkin.
- Ekologiya vazirligi chang konsentratsiyasini o'lchash uchun tortish usulidan yoki beta nurlarining so'rilishi usulidan foydalanadi, biroq LG mahsuloti changlar sonini o'lchaydi va uni massa konsentratsiyasiga aylantiradi, shuning uchun u haqiqiy chang konsentratsiyasidan farq qilishi mumkin.
- Ultra mayda chang uchun qo'llaniladigan standartdan super ultra mayda chang bo'yicha chang konsentratsiyasi darajasi uchun ham qo'llaniladi. (LG standarti)
- Chang konsentratsiyasini baholash LG standarti sinov changi bilan amalga oshiriladi.
- Chang sensori atrofini silkitish chang sensorining me'yorida ishlashiga halaqit berishi mumkin va ko'rsatilgan konsentratsiya haqiqiy chang konsentratsiyasidan farq qilishi mumkin.
- Siz undan faqat umumiy tozalik funksiyasi qo'llanilgan modellarda foydalanishingiz mumkin.
- Masofadan boshqarish pultidagi **PM Sensor** tugmachasi har bir chang miqdorini 10 soniya davomida tekshirishga imkon beradi.
 - 10 soniyadan so'ng, displeyda nozik, o'ta yupqa, juda nozik chang zarralari orasida eng yomon chang konsentratsiyasi ko'rsatiladi.

Maxsus funksiyalardan foydalanish

- 1 Moslamani yoqing.
- 2 Kerakli funksiyani tanlash uchun **Func** tugmasini qayta-qayta bosong.
- 3 Yakunlash uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosong.



Ekranida aks etishi	Tavsifi
	Tashqi blokdan chiqadigan shovqinni kamaytirish uchun.
	Ichki blokda hosil bo'lgan namlikni olib tashlash uchun.

Izoh

- Ayrim xususiyatlar modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- Ayrim funksiyalar pult ekranidagi ko'rsatmadan farqliroq ishlashi mumkin.

Maxsus funksiyalarni bekor qilish

- 1 Kerakli funksiyani tanlash uchun **Func** tugmasini qayta-qayta bosong.
- 2 Funksiyani bekor qilish uchun **Set/Cancel** tugmasiga bosong.

Sokinlik funksiyasidan foydalanish

Ushbu funksiya tashqi blokdan chiqqan shovqinni kamaytirish orqali qo'shnilar tarafidan shikoyatlar kelib chiqishining oldini olishga yordam beradi.

- Ekranda  aks etadi.

Izoh

- Ushbu funksiya **Mode** yoki **Energy Ctrl** yoki **Jet Mode** tugmasini bossangiz, o'chadi.
- Ushbu funksiya sovitish, isitish, avto o'zgarish, avto ishlash rejimida mavjud.
- Tashqi multi blokka ulanganda bu funksiya ishlamasligi mumkin.

Avto tozalash funksiyasidan foydalanish

Sovitish va quritish rejimlarida ichki blok ichida namlik paydo bo'ladi. ushbu funksiya mazkur namlikni yo'qotadi.

- Ekranda  aks etadi.

Izoh

- Avto tozalash funksiyasi ishlayotganda ayrim funksiyalar bosilmasligi mumkin.
- UVnano funksiyasi o'rnatilganda, Avtomatik tozalash funksiyasi birgalikda ishlaydi.
- Agar siz quvvatni o'chirsangiz, ventilyator 30 daqiqa davomida ishlaydi va ichki blokni tozalaydi.
- [O] modelga bog'liq ravishda ba'zi ichki qismlarda ko'rsatiladi.

LG ThinQ ilovasi

Bu xususiyatdan faqat  yoki **ThinQ** logotipiga ega bo'lgan modellarda foydalanish mumkin.

LG ThinQ ilovasi smartfondan foydalanib jihoz bilan aloqada bo'lishga imkon beradi.

LG ThinQ ilovasi xususiyatlari

Qulay aqlli funksiyalar yordamida smartfon orqali jihozga ulaning.

Smart Diagnosis (Aqlli tashxislash)

Agar sizda ilovadan foydalanishda muammolar bo'lsa, ushbu aqlli tashxislash xususiyati muammoni tashxislashda yordam beradi.

Sozlanmalar

Jihozda va ilovada turli parametrlarni qo'yish imkonini beradi.


Izoh

- Agar simsiz marshrutizator, Internet xizmati provayderi yoki parolni o'zgartirsangiz, ro'yxatga olingan jihozni **LG ThinQ** ilovasidan o'chiring va uni qaytadan ro'yxatdan o'tkazing.
- Mahsulot sifatini oshirish maqsadida foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz ilovaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Rusumga bog'liq ravishda xususiyatlar o'zgarishi mumkin.


LG ThinQ ilovasidan foydalanishdan avval

- 1 Jihoz va simsiz router (Wi-Fi tarmoq) orasidagi masofani tekshiring.
 - Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchi pasayadi. Ulanish uzoq vaqt talab qilishi yoki o'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin.

- 2 Smartfoningizdagi **Mobil internetni** o'chiring.



- 3 Smartfoningizni simsiz routerga ulang.



Izoh

- Wi-Fi ulanishini tekshirish uchun boshqaruv panelida  belgisi yoqilganligini ko'ring.
- Bu jihoz faqat 2,4 GGS chastotali Wi-Fi tarmoqlarda ishlaydi. Tarmoq chastotasini tekshirish uchun internet-provayderingizga murojaat qiling yoki simsiz router qo'llanmasiga qarang.
- **LG ThinQ** tarmoqqa ulanish muammolari yoki tarmoqda yuzaga kelgan har qanday nosozlik, noto'g'ri ishlash yoki xatolarni bartaraf qilish uchun mo'ljallanmagan.
- Agar jihozlar Wi-Fi tarmog'iga ulana olmasa, muammo jihoz routerdan uzoqda joylashganligi sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Wi-Fi signalini kuchaytirish uchun Wi-Fi retranslyator (signal kuchaytirgich) sotib oling.
- Uydagi tarmoq muhitiga qarab Wi-Fi ulanishi o'rnatilmasligi yoki uzilib qolishi mumkin.
- Internet ta'minotchisiga qarab tarmoq ulanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Atrofdagi simsiz aloqa muhiti tufayli simsiz tarmoq xizmati sekin ishlashi mumkin.

- Simsiz signal uzatilishida muammo bo'lsa, jihoz tarmoqqa ulana olmaydi. Jihozni o'chiring va yana urinib ko'rishdan avval taxminan bir daqiqa kuting.
- Agar simsiz routingizda himoya devori yoniq bo'lsa, himoya devorini o'chiring yoki uni istisnolar ro'yxatiga kiriting.
- Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
- Smartfonning foydalanuvchi interfeysi (UI) mobil operatsion tizim (OS) va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin.
- Agar routingning xavfsizlik protokoli **WEP** qilib belgilangan bo'lsa, tarmoqni sozlay olmasligingiz mumkin. Uni boshqa xavfsizlik protokoliga o'zgartiring (**WPA2** tavsiya etiladi) va jihozni qaytadan ro'yxatdan o'tkazing.

LG ThinQ ilovasini o'rnatish

Smartfonda Google Play Store yoki Apple App Store do'konlaridan **LG ThinQ** ilovasini qidiring. Ilovani yuklab olish va o'rnatish ko'rsatmalariga amal toping.

Simsiz LAN moduli xarakteristikasi

Rusum	LCW-007
Chastota ko'lami	2412 MHz - 2472 MHz
Chiqish quvvati (maks)	IEEE 802.11b:17.59 dBm IEEE 802.11g:17.39 dBm IEEE 802.11n(HT20):16.64 dBm IEEE 802.11n(HT40):17.05 dBm

Mikrodastur versiyasining simsiz funksiyasi: V 1,0

Ochiq kodli dasturiy ta'minot eslatmasi

Manba kodini GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq manbali litsenziyalar ostida olish uchun bu mahsulotda mavjud bo'lgan manba kodini oshkor qilish majburiyatiga ega bo'lgan, shuningdek eslatib o'tilgan litsenziya shartlariga, mualliflik huquqi to'g'risidagi xabarnomalarga va boshqa tegishli hujjatlarga kirish uchun <https://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif bu mahsulotni oxirgi marta jo'natganimizdan keyin uch yil davomida bu ma'lumotni olgan har bir kishi uchun yaroqli hisoblanadi.

Smart Diagnosis (Aqlli tashxislash)

Bu xususiyatdan faqat  yoki  logotipiga ega bo'lgan modellarda foydalanish mumkin.

Jihozingiz bilan muammolarni tashxislash va hal qilish uchun shu xususiyatdan foydalaning.

Izoh

- LGE'ga xos bo'lmagan sabablar tufayli Wi-Fi ning mavjud emasligi, Wi-Fi ning uzilishi, mahalliy ilovalar do'konining siyosati yoki ilovaning mavjud emasligi kabi tashqi omillar tufayli xizmat ishlamasligi mumkin.
- Bu xususiyat avvaldan xabar berilmasdan turib o'zgartirilishi va qayerda joylashganligingizga bog'liq ravishda boshqacha bo'lishi mumkin.

Muammolarni tashxislash uchun LG ThinQ ilovasidan foydalanish

Agar sizda Wi-Fi bilan jihozlangan qurilmangiz bilan bo'liq muammo bo'lsa, u nosozliklarni bartaraf qilish ma'lumotlarini **LG ThinQ** ilovasidan foydalanib smartfonga o'tkazishi mumkin.

- **LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va menyuda **Smart Diagnosis** xususiyatini tanlang. **LG ThinQ** ilovasida berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

Muammolarni tashxislash uchun Audible Diagnosis xususiyatidan foydaanish

Ovozli diagnostika usulidan foydalanish uchun quyidagi ko'rsatmalarni bajaring.

- **LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va menyuda **Smart Diagnosis** xususiyatini tanlang. **LG ThinQ** ilovasida eshitis orqali tashxislash uchun berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

- 1 Elektr kabeli sanchqisini rozetkaga to'g'ri ulang.
- 2 Smartfoningiz mikrofonini  yoki  logotipiga yaqinroq joylashtiring.
- 3 Ma'lumotlar o'tkazish yakunlangunicha smartfoningiz mikrofonini logotipga ushlab turgan holda **Diagnosis(5 s)** tugmasini 5 soniya yoki undan ko'proq vaqt bosib turing.
 - Ma'lumot uzatilguniga qadar smartfonni shunday tutib turing. Ma'lumot uzatuvchi yakunlanishiga qadar qolgan vaqt displeyda ko'rsatiladi.
- 4 Ma'lumotlarni o'tkazish yakunlangandan keyin tashxis ilovada ko'rsatiladi.

Izoh

- Yaxshi natijaga erishish uchun ma'lumotni uzatish paytida telefonni siljitmang.
- Atrofdagi shovqin minimal darajaga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling, aks holda telefon gudokli signalni ichki blokdan to'g'ri qabul qilmasligi mumkin.




OGOHLANTIRISH

- Tozalashdan oldin yoki texnik xizmat ko'rsatishdan avval elektr tokidan simni ajrating va ventilyator to'xtagunga qadar kuting.

Agar konditsioner uzoq vaqt davomida ishlatilmasa, uni yaxshi holatda saqlash uchun quruq holatda saqlang. Optimal ishlash va ehtimoliy buzilishlarning oldini olish uchun mahsulotni tez-tez tozalab turing.

- 3-4 soat davomida konditsionerni quriting va elektr rozetkasidan ajrating. Agar uning tarkibiy qismlarida namlik qolib ketsa, ichki qismiga shikast etishi mumkin.
- Havo konditsioneridan qaytadan foydalanishdan oldin, uning ichki qismlarini ventilyator rejimida 3-4 soat davomida ishlating. Bu namlik sababidan hosil bo'lgan hidlarni yo'qotadi.



1 Mikro changlar filtri

- Model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.

Turi	Tavsifi	Interval
Mikro changlar filtri	Changyutgich yoki cho'tka bilan tozalang.	Oyiga bir marta
Uch qavatli filtr	Uchtalik filtni tozalamang. (Uni faqat almashtirish mumkin.)	-
Allergiyaga qarshi filtr	Changyutgich yoki cho'tka bilan tozalang.	Har 6 oyda
Ionzator (opsional)	Har qanday changni tozalab tashlash uchun quruq paxta matosidan foydalaning.	Har 6 oyda
Ichki blok	Ichki blok yuzasini yumshoq, quruq matodan foydalaning.	Tez-tez
	Kondensat drenaj tagligini profesional shaxsga tozalating.	Bir yilda bir marta
	Kondensat drenaj quvurini profesional shaxsga tozalating.	Har 4 oyda
	Pult batareyalarini almashtiring.	Bir yilda bir marta
Tashqi blok	Issiqlik radiator halqalarini va panel darchalarini professional darajada tozalang. (zarurat bo'lsa usta bilan maslahatlashing.)	Bir yilda bir marta
	Ventilyatorni professional tozalang.	Bir yilda bir marta
	Kondensat drenaj tagligini profesional shaxsga tozalating.	Bir yilda bir marta
	Barcha ventilyator ushlagichlari mahkam tortilganligini tekshirtiring.	Bir yilda bir marta
	Elektr qismlarini havo bilan tozalang.	Bir yilda bir marta

Izoh

- Hech qachon tozalashda 40 °C darajadan issiq bo'lgan suvdan foydalanmang. Bu shaklning o'zgarishiga yoki rangning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Filtrlarni tozalayotgan paytingizda hech qachon uchuvchan substansiyalardan foydalanmang. Ular mahsulotning yuzasini shikastlashi mumkin.
- Uch qavatli filtri suv bilan yuvilmasin, chunki filtr shikastlanishi mumkin (opsional).
- Mikro changlar filtri suv bilan yuvilmasin, chunki filtr shikastlanishi mumkin.
- Allergiyaga qarshi filtni suv bilan yuvmang, chunki filtr shikastlanishi mumkin (opsional).


Mikro changlar filtrini almashtirish va tozalash

Mikro changlar filtrini oyiga bir marta yoki zaruratga ko'ra tozalang.


Mikro changlar filtrini qismlarga ajratish va tozalash

Agar siz ichki blokka tepadan qarasangiz, tepa filtrini oson chiqarish mumkin.

- 1 Quvvatni o'chiring va elektr simini tokdan ajrating.
- 2 Ionlashtirgichdan ushlang, uni astalik bilan ko'taring. Va keyin mikro changlar filtrining tutqichidan ushlang, uni asta ko'taring.





- 3 Uni ichki blokdan chiqarib oling.




- 4 Filtrni changyutgich yoki chyotka bilan tozalang. (Mikro changlar filtrini suv bilan yuvmang.)

Mikro changlar filtrini yig'ish

- 1 Quvvatni o'chiring va elektr simini tokdan ajrating.
- 2 Ionlashtirgichdan ushlang, uni astalik bilan ko'taring. Va keyin mikro changlar filtri ilgaklarini old qopqoqqa kiriting.



- 3 Mikro changlar filtrini yig'ish uchun ilgaklarni pastga bosing.



- 4 Mikro changlar filtri to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish uchun old qopqoqning yon tarafiga qarang.

Izoh


- Mikro changlar filtri buklansa, sinib qolishi mumkin.
- Mikro changlar filtri to'g'ri o'rnatilmasa, chang va boshqa moddalar ichki blokka kirishi mumkin.
- Agar changlar filtrga tiqilib qolsa, sovutish samaradorligi pasayadi, shamol tovushi dag'allashadi va elektr sarfi ortadi, shuning uchun ham mikro changlar filtrini oyiga bir marta tozalab turing va har 6 oyda almashtiring.

Uchtalik filtrni almashtirish (opsional)


U faollashtirilgan ugleroddan foydalangan holda xona ichidagi noxush hidlarni kerkazadi.

- 1 Mikro changlar filtrini chiqarib oling.
 - Mikro changlar filtrini qismlarga ajratish va tozalash bo'limiga qarang.

- 2 Uchtalik filtrni (❶) chiqarib oling.



- 3 Yangi Uchtalik filtrni (❶) mikro changlar filtriga (❷) yig'ing.



- 4 Uchtalik filtr va mikro changlar filtrini qismlarga ajratishga teskari tartibda yig'ing.

⚠️ DIQQAT


- Old panel yiqilib ketishi va shikastlashi mumkin, shuning uchun ham ehtiyot bo'ling.
- Filtrni almashtirgandan keyin qayta joylash davomida butun mikro changlar filtrini to'liq kiriting. (Agar u to'liq kiritilmasa, masulot samaradorligini pasayishiga yoki boshqa nuqsonlarga olib kelishi mumkin.)
- Havo konditsionerini filtersiz ishlatish mashulot samaradorligining pasayishiga va havo konditsionerining nosozligiga olib keladi.
- Uchtalik filtrning o'zini yig'mang va uning shikastlanishi yoki deformatsiyalanishining oldini oling. Bu mahsulotning ishlamasligi yoki noodatij ishlashi tufayli nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Filtrni almashtirganda uni mahsulot ostiga tushirib yubormaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- Xavfsizlikni ta'minlash uchun tozalash yoki almashtirishdan avval mahsulot elektr ta'minotini o'chiring va elektr shnuri vilkasini rozetkasan sug'uring yoki asosiy elektr ta'minot pereklyuchatelini o'chirib qo'ying.

Izoh


- Modelga ko'ra filtrning shakli va tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin.
- Agar filtrni almashtirmoqchi bo'lsangiz, uni yaqin-atrofdagi servis markazidan xarid qilishingiz mumkin.
- Agar filtr juda ifloslangan bo'lsa yoki uning samaradorligi pasayib ketsa, uni yangi filtr bilan almashtiring.
- Uchtalik filtrni saqlash davomida qadog'ini yirtmang. (Filtrning yaroqlilik muddati pasayadi.)
- Uchtalik filtrning ichiga suv kirmasligi uchun ehtiyot bo'ling. (Filtr samaradorligi pasayadi.)

PM1,0 sensorini tozalang

- 1 Mahsulotning yon tomonidagi PM1,0 datchigi qopqog'ini oching.



- 2 Paxtali cho'pakni bir oz namlang, linzani arting va namlikni yo'qotish uchun uni yana quruq paxtali cho'pak bilan arting.



Izoh

- Faqat umumiy tozalik displeylari uchun amal qiladi.

O'zini o'zi diagnostika qilish funksiyasi

Ushbu mahsulot o'zini o'zi diagnostika qilish funksiyasiga ega. Agar xato yuz bersa ichki blok chirog'i 2 soniya oraliq bilan miltillaydi. Agar shunday bo'lsa, mahalliy diler yoki xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Xizmat markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval

Ilmtos, xizmat markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval quyidagilarni tekshiring. Agar muammo davom etsa mahalliy xizmat markaziga murojaat qiling.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sabablar va yechim
Havo konditsioneri normal ishlamayapti.	Kuygan hid va g'alati tovushlar ichki blokdan chiqmoqda. Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
	Namlik past bo'lsa ham ichki blokdan suv oqmoqda. Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
	Quvvat kabeli shakllangan yoki u keskin issiqlik chiqarmoqda. Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
	Tumbler, avtomat (xavfsizlik, yerga ulash) yoki elektr saqlagich yaxshi ishlamayapti. Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
	Qurilma o'zini o'zi diagnostikadan xato kodini chiqarmoqda. Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
Havo konditsioneri ishlamayapti.	Havo konditsioneri tokdan uzilgan. elektr kabeli rozetkaga ulanganligi yoki tokni uzish avtomatlari yokilganligini tekshiring.
	Elektr saqlagich kuygan yoki elektr ta'minoti bloklangan. Elektr saqlagichni almashtiring yoki avtomat uzib qo'yilmaganligini tekshiring.
	Tok uzilgan. - Tok ketsa, havo konditsionerini o'chiring. - Tok berilganda 3 daqiqa kuting, shundan so'ng konditsionerni yoqing.
	Kuchlanish juda baland yoki juda past. Avtomat uzib qo'ymaganligini tekshiring.
	Havo konditsioneri avtomatik tarzda o'chib qoldi. Konditsionerni yoqing.
	Pultdagi batareya sozlamasi noto'g'ri. - Pultingizda batareyalar to'g'ri o'rnatilganligini tekshiring. - Agar batareyalar to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, biroq konditsioner hamon ishlamasa, batareyalarni almashtiring va qaytadan urinib ko'ring.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sabablar va yechim
Havo konditsioneri salqin havo chiqarmayapti.	Havo to'g'ri aylanmayapti. Havo konditsionerining old qismi pardalar, jalyuzilar yoki mebel qismlari bilan to'silmaganligini tekshiring.
	Mikro changlar filtri kirlangan. - Mikro changlar filtrini oyiga bir marta tozalang. - Batafsil ma'lumot uchun "Mikro changlar filtrini almashtirish va tozalash" bo'limiga qarang.
	Xona harorati juda baland. Yozda, xonani sovitish bir oz vaqt olishi mumkin. bunday holatda xonani tez sovitish uchun turbo rejimidan foydalaning.
	Sovuq havo xonadan chiqib ketmoqda. Xonaning ventilyasiya yo'llaridan sovuq havo chiqib ketmayotganligini tekshiring.
	Siz xohlagan harorat joriy haroratdan yuqori. Kerakli haroratdan pastroq darajada qilib o'rnatng.
	Yaqin atrofda isitish manbai bor. Konditsioner ishlayotgan paytda elektr o'chog'i yoki gaz o'chog'i kabi issiqlik chiqaruvchi moslamalardan foydalanmang.
	Ventilyator rejimi tanlangan. - Ventilyator rejimida ichki blokdan havo sovitilmasdan yoki isitilmasdan chiqadi. - Ishlash rejimini sovitishga o'rnatng.
	Tashqaridagi harorat juda baland. Sovitish effekti samarali bo'lmasligi mumkin.
Ventilyator tezligini sozlab bo'lmayapti.	Turbo rejim yoki avtoishlash rejimi tanlandi. Ayrim ishlash rejimlarida siz ventilyator tezligini sozlay olmaysiz. Ventilyator rejimini sozlay oladigan ishlash rejimini tanlang.
Haroratni sozlab bo'lmayapti.	Ventilyator yoki turbo rejimi tanlangan. Ayrim ishlash rejimlarida siz haroratni sozlay olmaysiz. Haroratni sozlay oladigan ishlash rejimini tanlang.
Havo konditsioneri ishlayotgan paytda to'xtab qolmoqda.	Havo konditsioneri bexostan o'chib qoldi. Taymer funksiyasi vaqti tugagan bo'lishi mumkin, shu bois qurilma o'chgan bo'lishi mumkin. Taymer sozlamalarini tekshiring
	Ishlash paytida tok uzilgan. Tok qayta tiklanishini kuting. agar sizda avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yoqilgan bo'lsa, quvvat tiklangandan so'ng bir necha daqiqadan so'ng so'nggi ishini davom ettiradi.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sabablar va yechim
Ichki blok tok o'chirilgan bo'lishiga qaramasdan ishlashda davom etmoqda.	Avto tozalash funksiyasi ishlayotgan bo'lishi mumkin. Avto tozalash funksiyasi ichki blok ichida qolgan har qanday namlikni tozalab tashlash uchun ishlashda davom etadi. Agar siz ushbu xususiyatdan foydalanishni xohlamasangiz, qurilmani o'chirib qo'yishingiz mumkin.
Ichki blokning havochiqish joyidan tuman chiqmoqda.	Konditsioner ichidagi sovitilgan havo tuman chiqarishi mumkin. Xona harorati pasaysa, ushbu hodisa yo'qoladi.
Tashqi blokdan suvoqmoqda.	Isitish rejimlarida radiatorlardan kondensat suv oqishi mumkin. Bu narsa asosiy taglik ostida drenaj shlangini o'rnatishni talab etadi. O'rnatuvchiga murojaat qiling.
Shovqin yoki tebranish bor.	Qurilma ishga tushganda yoki to'xtaganda qaytarish klaraning harakati tufayli qirsillagan ovoz eshitisilish mumkin. Qarsillagan ovoz: Ichki blokning rlastik qismlari harorat o'zgarishi tufayli kengayish va qisqarish sababli qarsillashi mumkin. Suyuqlik oqqan yoki havo haydagan ovoz: Bu konditsioner ichida oqqan xladagentning ovozidir. Bu alomatlar normal holat hisoblanadi. shovqin to'xtaydi.
Ichki blokdan hidchiqmoqda.	Hidlar (sigaret tutuni kabilar) ichki blok tarafidan so'rilgan bo'lishi mumkin va havo oqimi bilan chiqarilishi mumkin. Agar hid yo'qolmasa, filtrni yuvshingiz kerak bo'ladi. Agar bu yordam bermasa radiatoringizni yuvdirish uchun xizmat markaziga murojaat qiling.
Havo konditsioneri iliq havo chiqarmayapti.	Isitish rejimida konditsioner ishga tushirilganda jalyuzi deyarli yoriq bo'ladi va havo tashqi blok ishlayotgan bo'lsa ham chiqmaydi. Bu alomat normal hisoblanadi. iltimos, qurilmada yetarlicha issiq havo hosil bo'lib ichki blokdan chiqishini kuting.
	Tashqi blok eritish rejimida. Tashqaridagi havo harorati tushib ketsa isitish rejimida radiatorlarda muz/yah hosil bo'ladi. ushbu funksiya radiatoridagi muz qatlamini olib tashlaydi, u 15 daqiqa ichida nihoyasiga yetishi kerak.
	Tashqaridagi harorat juda past. Isitish effekti yetarli bo'lmasligi mumkin.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sabablar va yechim
Mahsulotga ko'ra umumiy tozalik dispeyi ko'rsatgan qiymatlar va ranglarda farqlar mavjud bo'ladi.	Mahsulot ishlaganidan keyin havoning aylanishi davom etadi. Agar bitta joyda turli modeldagi mahsulotlardan foydalanilsa, ifloslanish konsentratsiyasi qiymati xona ichidagi havo aylanishi tomonidan turlicha ko'rsatilishi mumkin va agar u yopiq joy bo'lsa, qanchalik ko'p mayda changlar yo'qotilsa, qiymatlardagi farq kichiklashadi.
Umumiy tozalik Yaxshidan o'zgarmayapti. Xonadagi barcha derazalar yopiq.	Agar u deyarli havo aylanmaydigan yopiq joy bo'lsa, daraja Yaxshidan o'zgarmasligi mumkin. - Agar xonadagi deraza yoki eshik ochilganida umumiy tozalik o'zgarsa, bu oddiy hol hisoblanadi. PM1,0 sensori kirlangan. - PM1,0 sensorini tozalang.
Uy jihozingiz va smartfoningiz Wi-Fi tarmoqqa ulanmagan.	Siz ulanishga harakat qilayotgan Wi-Fi paroli xato. Smartfoningizga ulangan Wi-Fi tarmoqni toping va uni o'chirib yuboring, so'ng jihozingizni LG ThinQ ilovasida ro'yxatdan o'tkazing.
	Smartfoningizda Mobil internet yoqilgan. Smartfoningizda Mobil internetni o'chiring va Wi-Fi tarmoqdan foydalangan holda jihozingizni ro'yxatdan o'tkazing.
	Simsiz tarmoq nomi (SSID) xato o'rnatilgan. Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlating)
	Router chastotasi 2,4 GGs emas. Router faqat 2,4 GGs chastotada ishlaydi. Simsiz routerni 2,4 GGs chastotaga sozlang va jihozingizni simsiz routerga ulang. Router chastotasini tekshirish uchun internet xizmati ta'minotchisiga yoki routingingizni ishlab chiqargan kompaniyaga murojaat qiling.
	Jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq. Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchsiz bo'lishi va ulanish to'g'ri o'rnatilmasligi mumkin. Routingingizni jihozga yaqinroq joyga o'rnatang.

Izoh

- Ayrim xususiyatlar modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.



- LG Electronics Tianjin Appliances Co.,Ltd.
No.9 Jin Wei Road, Bei Chen Dist, Tianjin, China
- Импортёр в РФ : ООО «ЛГ Электроникс РУС»
143160, Россия, Московская обл., Рузский г.о., тер. Минское ш., км 86-й, д. 9
- ЛГ Электроникс Тяньцзинь Апплайнсез Ко., Лтд.
Китай, Тяньцзинь, Бей Чен Дист, Джин Вей Роуд, 9
- ҚР импорттаушы: “Эл Джи Электроникс Алматы Қазақстан” АҚ
ҚР, Алматы қ., Көкорай к-сі, 2А/9
- Эл Джи Электроникс Тяньджин Апплайнс Ко., ЖШҚ.
ҚХР, Тяньцзинь қ., Бей Чен ауд., Джин Вей Роуд 9
- ЛГ Електронікс Тяньцзинь Апплайнсез Ко., Лтд.
КНР, Тяньцзинь, Бей Чен, Джін Вей Роуд 9
- LG Elektroniks Tyanjin Eplayenses Co., Ltd.
XXR, Tyanjin shahri, Bey Chen tumani, Jin Vey yo'li 9
- ЛГ Электронікс Цянджын Апплайнсыз Ко, Лтд.
№9 Джын Вей Роуд, Бей Чэн Дыстрыкт, Цянджын, Кітай